



#### IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH


2023 yilning yanvar-iyun oylarida Respublikaning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 4 703,6 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar kiritilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati 104,2 % ni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar 1823,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

##### Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘shirish sur‘ati, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan % da</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>4703,6</b>	<b>104,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>1098,9</b>	<b>96,8</b>	<b>23,4</b>
budjet mablag‘lari	547,0	99,4	11,6
Suv ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	14,8	30,1	0,3
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	537,1	122,5	11,5
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>3604,7</b>	<b>106,7</b>	<b>76,6</b>
korxonalarining o‘z mablag‘lari	1264,0	104,0	26,9
aholi mablag‘lari	676,5	97,3	14,4
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	1286,2	115,4	27,3
tijorat bank kreditlari boshqa qarz mablag‘lari	378,0	106,8	8,0

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**





### 2023 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	<i>jami</i>	<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
<b>Jami, mlrd. so‘m</b>	<b>4703,6</b>	<b>1155,3</b>	<b>3548,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
qurilish-montaj ishlari	2727,7	818,6	1909,1
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari	1707,0	284,6	1422,4
Boshqa harajatlar	268,9	52,1	216,8

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish-montaj ishlarining ulushi 1,2 % li punktga kamayganligi, mashina, uskunalar, transport vositalarini ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari qiymati ulushi 1,9 % li punktga ko‘payganligi va boshqa harajatlarning ulushi 0,7 % li punktga kamayganligini ko‘rsatmoqda.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 1098,9 mlrd. so‘mlik investitsiya mablag‘lari kiritilib, bu ko‘rsatkich jami investitsiyalarning 23,4 % ni tashkil etdi, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish surati 96,8 % ni tashkil etgan. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3604,7 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi (jamiga nisbatan ulushi 76,6 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 106,7 % ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobiga 1264,0 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalarning 26,9 % o‘zlashtirildi. Aholining mablag‘lari hisobidan 676,5 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirilib, jami investitsiyalar hajmining 14,4 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida 537,1 mlrd. so‘mlik xorijiy kreditlar ajratildi, bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 122,5 % ga oshib yoki jami investitsiyalarning ulushi 11,5 % ni tashkil etgan.


Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 378,0 mlrd. so‘mlik mablag‘lar kiritildi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 8,0 %), bu o‘shish sur‘ati 106,8 % ni tashkil etdi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 1286,2 mlrd. so‘m (ulushi 27,3 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 115,4 % ni tashkil etdi, Respublika budjeti 547,0 mlrd. so‘m (ulushi 11,6 %) ushish sur‘ati 99,4 %. Suv ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan 14,8 mlrd. so‘m, (ulushi 0,3 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 30,1 % ni tashkil etdi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar**


Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi qayta ishlash sanoatiga 1142,7 mlrd. so‘m (24,3 %), shundan koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishga 799,2 mlrd.so‘m (17,0 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishga 116,2 mlrd.so‘m (2,5 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga 76,9 mlrd.so‘m (1,6 %), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga 86,1 mlrd.so‘m (1,8 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyat turiga 460,9 mlrd. so‘m (9,8 %), tashish va saqlashga 695,9 mlrd. so‘m (14,8 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga 355,6 (7,6 %) mlrd. so‘m, shundan tabiiy gazni qazib olishga 324,8 mlrd, so‘m (6,9 %), elektr energiyasi va gaz ta‘minotiga 48,2 mlrd.so‘m (1,0 %), suv ta‘minoti kanalizatsiya va chiqindilarni utilizatsiya qilishga 234,8 mlrd. so‘m (5,0 %), qurilishda 322,2 mlrd.so‘m (6,9 %), ulgurji va chakana savdoga 141,0 mlrd. so‘m (3,0 %), axborot va aloqa 48,3 mlrd. so‘m (1,0 %), professional ilmiy va texnik xizmat turlariga 81,9 mlrd. so‘m (1,7 %), ta‘limga 146,3 mlrd. so‘m (3,1 %), davlat boshqaruvi va mudofaga 82,9 mlrd. so‘m (1,8 %), yashash va ovqatlanish xizmati turlariga 9,3 mlrd. so‘m (0,2 %), moliya va sug‘urta faoliyatiga 9,7 mlrd. so‘m (0,2 %),

sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar kursatishga 155,5 mlrd. so‘m (3,3 %), san‘at ko‘ngil ochish va dam olishga 33,9 mlrd. so‘m (0,7 %), turar-joy qurilishiga 579,4 mlrd. so‘m (12,3 %) va boshqa faoliyat turlariga 73,6 mlrd. so‘m (1,6 %) to‘g‘ri keldi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar (umumiy hajmga nisbatan % da)



**2023 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi**



## Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, (umumiy hajmga nisbatan % da)



Jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 27,3 % to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi, shu bilan birga, korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan 26,9 %, aholi mablag‘lari hisobidan, bu esa jami investitsiyalarning 14,4 % ni tashkil etadi.

**2023 yilning yanvar-iyun oylarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**

	<i>Kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati, %</i>	<i>Umumiy hajmdagi ulushi, %</i>
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>4703,6</b>	<b>104,2</b>	<b>100,0</b>
Respublika budjeti	547,0	99,4	11,6
Suv ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	14,8	30,1	0,3
O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari	537,1	122,5	11,5
Korxonalar mablag‘lari	1264,0	104,0	26,9
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	378,0	106,8	8,0
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	1286,2	115,4	27,3
Aholi mablag‘lari	676,5	97,3	14,4

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o‘shish sur‘atlari O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari 537,1 mlrd. sum bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 122,5 % ni tashkil etgan.



## Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m

	2022 y. yanvar- iyun	2023 y. yanvar- iyun	o‘tgan yilning mos davriga o‘sish sur‘ati, % da	jami investitsiyalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi, ming AQSh doll.
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>4 203,2</b>	<b>4 703,6</b>	<b>104,2</b>	<b>17 129,5</b>
Nukus sh.	1 063,5	1 050,5	92,1	2 836,5
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	244,9	238,7	90,4	-
Beruniy	263,9	179,8	62,9	-
Bo‘zatov	42,0	45,5	101,0	-
Qonliko‘l	59,1	82,6	129,4	-
Qorao‘zak	502,4	694,8	129,1	1 506,0
Kegeyli	62,2	57,7	86,3	475,2
Qo‘ng‘irot	510,9	538,2	98,3	11 052,6
Mo‘ynoq	535,4	633,2	110,4	-
Nukus	107,5	162,7	140,0	-
Taxiatosh	112,0	99,2	82,3	-
Taxtako‘pir	28,4	27,1	89,4	-
To‘rtko‘l	254,7	323,2	117,7	585,8
Xo‘jayli	107,7	130,2	112,3	-
Chimboy	114,2	113,0	91,5	673,4
Shumanay	44,0	32,3	68,1	-
Ellikqal‘a	150,4	294,9	182,5	-

**Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar**  
(2023 yil yanvar- iyun oylarida)

	<i>Aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi, ming so‘mda</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>2 373,7</b>	<b>102,8</b>
Nukus sh.	3 130,9	90,7
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1 140,5	88,8
Beruniy	890,2	61,7
Bo‘zatov	2 078,6	100,5
Qonliko‘l	1 552,6	128,0
Qorao‘zak	12 819,3	127,9
Kegeyli	776,4	85,6
Qo‘ng‘irot	3 989,8	97,1
Mo‘ynoq	18 900,0	109,4
Nukus	3 064,5	137,4
Taxiatosh	1 300,0	81,7
Taxtako‘pir	696,1	93,6
To‘rtko‘l	1 432,6	115,7
Xo‘jayli	1 020,8	110,9
Chimboy	981,6	90,8
Shumanay	559,5	67,4
Ellikqal‘a	1 751,3	179,0

2023 yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Mo‘ynoq tumani 18 900,0 ming so‘m, bu yerda uglevdorod xom oshyosi qazib chiqarish hajmlarini ko‘paytirishga o‘zlashtirilgan, Qorao‘zak tumani 12 819,3 ming so‘m, bu yerda Tebin buloq temir ruda konini o‘zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurishga (1-bosqich) o‘zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog‘liq.

## 2023 yilning yanvar-iyun oylarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so‘m	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:				
		respublika budjeti	korxonalar mablag‘lari	aholi mablag‘lari	xorijiy investitsiyalar va kreditlar	Xukumat kafolati ostidagi chet el kreditlari
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>4 703,6</b>	<b>547,0</b>	<b>1 264,0</b>	<b>676,5</b>	<b>1 286,2</b>	<b>537,1</b>
Nukus sh.	1 050,5	149,0	571,0	57,4	84,6	48,2
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	238,7	21,7	51,2	76,9	10,0	51,1
Beruniy	179,8	16,5	54,4	90,4	2,8	0,0
Bo‘zatov	45,5	17,9	11,8	8,3	2,2	0,0
Qonliko‘l	82,6	23,5	18,8	27,9	0,3	0,0
Qorao‘zak	694,8	25,8	64,4	14,6	584,2	0,0
Kegeyli	57,7	23,9	8,2	14,7	5,4	0,0
Qo‘ng‘irot	538,2	31,8	117,7	21,1	128,1	203,6
Mo‘ynoq	633,2	38,4	216,0	11,7	365,9	0,0
Nukus	162,7	20,4	17,9	56,0	6,8	46,3
Taxiatosh	99,2	5,4	39,9	18,4	2,9	0,0
Taxtakopir	27,1	9,6	0,7	13,2	1,1	0,0
To‘rtko‘l	323,2	22,2	40,6	103,7	51,9	46,3
Xo‘jayli	130,2	66,8	12,6	31,4	1,9	0,0
Chimboy	113,0	19,2	7,6	51,1	31,4	0,0
Shumanay	32,3	7,5	2,1	21,1	0,0	0,0
Ellikqal‘a	294,9	47,4	29,1	58,6	6,7	141,6

*davomi*


	<i>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so‘m</i>	<i>shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i>		
		<i>Suv ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish jang‘armasi</i>	<i>Tiklanish va taraqqiyot jang‘armasi</i>	<i>tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>4 703,6</b>	<b>14,8</b>	<b>-</b>	<b>378,0</b>
Nukus sh.	1 050,5	12,9	-	127,4
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	238,7	-	-	27,8
Beruniy	179,8	-	-	15,7
Bo‘zatov	45,5	-	-	5,3
Qonliko‘l	82,6	0,6	-	11,5
Qorao‘zak	694,8	0,7	-	5,1
Kegeyli	57,7	0,4	-	5,1
Qo‘ng‘irot	538,2	-	-	35,9
Mo‘ynoq	633,2	-	-	1,2
Nukus	162,7	-	-	15,3
Taxiatosh	99,2	-	-	32,6
Taxtakopir	27,1	-	-	2,5
To‘rtko‘l	323,2	-	-	58,5
Xo‘jayli	130,2	0,2	-	17,3
Chimboy	113,0	-	-	3,7
Shumanay	32,3	-	-	1,6
Ellikqal‘a	294,9	-	-	11,5

### **Ijtimoiy soha obyektlarini qurish**


2023 yilning yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni 476,4 ming kv.m. bo‘lgan 2594 ta uy-joy qurilgan (2022 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 97,7 %) shu jumladan, qishloq joylarda 295,9 ming kv.m, 1598 ta uy-joy foydalanishga topshirildi. Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 579,4 mlrd. so‘mi yoki 40,4 % i turar-joy qurilishida o‘zlashtirildi.

Umumta‘lim maktablari va maktabgacha ta‘lim muassasalari qurilishida 90,3 mlrd. so‘m atrofida investitsiyalar o‘zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning 6,3 foizini tashkil qiladi.

**Qurilish faoliyati.** 2023 yilning yanvar-iyun oylarida 2 834,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 104,8 % ni tashkil etdi.




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari (umumiy hajmga nisbatan % da)



Qurilish ishlari umumiy hajmining 72,0 % i binolar va inshootlarni qurishga, 23,5 % i fuqarolik qurilishi ob’ektlarini qurish bo‘yicha qurilishga 4,5 % i ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 74,3 % i yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to‘g‘ri keladi.

**Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining  
o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti**  
(umumiy hajmga nisbatan % da)




**Davlat mulki**



**Nodavlat mulki**



**Korxonalar turlari bo‘yicha  
qurilish ishlari hajmi, mlrd.so‘m**




Jami qurilish ishlaridan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,5 % ni tashkil etib, ulushi 1,4 % li punktga kamaydi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasi 71,6 % ni tashkil etib, 1,5 % li punktga ko‘paygan, norasmiy sektorning ulushi 21,9 % ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, (umumiy hajmga nisbatan % da)



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 2 107,1 mlrd. so‘mni (ulushi 74,3 %) tashkil etdi. Kapital, joriy ta‘mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 727,5 mlrd. so‘mni (ulushi 25,7 %) tashkil etdi.




**2023 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha  
qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m**

	2022 yil	2023 yil	<i>o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati, % da</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>2 561,1</b>	<b>2 834,6</b>	<b>104,8</b>	<b>100,0</b>
Nukus sh.	853,6	947,0	105,9	33,4
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	147,8	167,4	106,0	5,9
Beruniy	171,3	172,6	94,0	6,1
Bo‘zatov	25,8	45,8	169,2	1,6
Qonliko‘l	45,8	50,4	102,4	1,8
Qorao‘zak	57,5	62,3	103,0	2,2
Kegeyli	58,7	63,4	102,6	2,2
Qo‘ng‘irot	196,6	182,1	88,4	6,4
Mo‘ynoq	45,8	67,3	139,7	2,4
Nukus t.	150,2	171,6	107,7	6,1
Taxiatosh	118,9	146,5	117,3	5,2
Taxtako‘pir	34,2	30,5	84,4	1,1
To‘rtko‘l	275,3	299,8	102,6	10,6
Xo‘jayli	91,7	102,4	105,3	3,6
Chimboy	66,7	75,1	104,5	2,6
Shumanay	19,6	24,0	113,8	0,8
Ellikqal‘a	201,6	226,4	106,4	8,0



2023 yilning yanvar-iyun oylarida Respublika bo‘yicha qurilish ishlari hajmida Nukus shahri 947,0 mlrd. so‘m, To‘rtko‘l 299,8 mlrd. so‘m, Ellikqal‘a 226,4 mlrd. so‘m va Qo‘ng‘irot tumani 182,1 mlrd. so‘m hajmli tumanlar yuqori ulushlarga ega.

## 2023 yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘atlari



Hisobot davrida bajarilgan qurilish ishlarining yuqori o‘shish sur‘ati Bo‘zatov (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 169,2 %), Mo‘ynoq (139,7 %), Taxiatosh tumani (117,3 %) va Shumanay (113,8 %) tumanlarida kuzatildi.

2023 yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan qurilish ishlari hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Nukus tumani (3 231,3 ming so‘m, o‘shish sur‘ati 105,6 %), Nukus shahri (2 822,8 ming so‘m yoki o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 104,4 %), Bo‘zatov tumani (2 092,4 ming so‘m, o‘shish sur‘ati 168,4 %) hamda Mo‘ynoq tumani (2 010,6 ming so‘m, o‘shish sur‘ati 138,5 %) qayd etildi.




**Aholi jon boshiga qurilish ishlari**  
*(2023 yil yanvar-iyun oylarida)*

	<i>Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi, ming so‘mda</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>1 430,5</b>	<b>103,5</b>
Nukus sh.	2 822,8	104,4
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	799,6	104,1
Beruniy	854,3	92,2
Bo‘zatov	2 092,4	168,4
Qonliko‘l	946,7	101,3
Qorao‘zak	1 148,6	102,0
Kegeyli	853,3	101,8
Qo‘ng‘irot	1 350,0	87,3
Mo‘ynoq	2 010,6	138,5
Nukus	3 231,3	105,6
Taxiatosh	1 919,6	116,4
Taxtako‘pir	783,6	88,3
To‘rtko‘l	1 328,9	100,9
Xo‘jayli	802,6	104,0
Chimboy	652,6	103,6
Shumanay	416,8	112,6
Ellikqal‘a	1 344,6	104,3




## 2023 yilning yanvar-iyun oylarida korxonalar turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, (umumiy hajmga nisbatan % da)



Yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yuqori ko‘rsatkichlari Mo‘ynoq (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 67,6 %), Taxiatoosh (ulushi 26,6 %), Qo‘ng‘irot (ulushi 22,2 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari ulushi,  
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami qurilish hajmidan eng yuqori ulushni Nukus shahrida 33,4 % ni, To‘rtko‘lda 10,6 % ni va Ellikqal‘a tumanida 8,0 % ni va tashkil etdi.

Shuningdek, Respublika miqyosida qurilish ishlari hajmida eng past ulushlar Bo‘zatov (1,6 %), Taxtako‘pir (1,1 %) va Shumanay (0,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.